

QASHQADARYO VILOATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 75-221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7122 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7105 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1434,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 108,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 73,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 70,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1125,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 234,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 128,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1 434,3	108,0
Qarshi sh.	390,1	103,4
Shahrisabz sh.	113,1	106,2
G'uzor	58,5	113,8
Dehqonobod	45,3	107,0
Qamashi	96,8	107,6
Qarshi	48,4	102,7
Koson	110,0	107,5
Kitob	71,2	108,6
Mirishkor	44,7	105,8
Muborak	37,6	102,2
Nishon	54,2	108,8
Kasbi	59,7	112,4
Ko'kdala	51,0	120,7
Chiroqchi	126,3	113,8
Shahrisabiz	52,8	130,3
Yakkabog'	74,5	107,3


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Shahrisabz (130,3 %), G'uzor va Chiroqchi (113,8 %) Kasbi (112,4 %), tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 27,2 % bilan 390,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,6 % bilan 37,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1125,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 8,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,5 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 29,4 % ga kamaydi va 73,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,4 %), Nishon (99,1 %) , Mirishkor (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (21,2 %), Qarshi shahri (8,4 %), Kasbi (6,9 %), Ko'kdala (6,4 %) tumanlarida kuzatildi.

5,2 %



94,8 %



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 407,3 ming. so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 105,7 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	234,6	128,0
Qarshi sh.	20,9	141,0
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	6,7	126,4
G'uzor	6,3	120,9
Dehqonobod	3,4	128,6
Qamashi	7,4	129,4
Qarshi	-	-
Koson	5,0	128,9
Kitob	5,9	128,0
Mirishkor	0,9	130,7
Muborak	5,0	130,5
Nishon	5,9	129,6
Kasbi	3,0	127,4
Ko'kdala	10,4	127,6
Chiroqchi	29,0	122,5
Shahrisabz	3,4	125,9
Yakkabog'	12,5	129,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'lish sur'atlari (2024- yil yanvar)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 234,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 128,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 113,1 mlrd. so'mni (125,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 121,5 mlrd so'mni tashkil etdi (136,0 %).













2024- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 113,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (62,7 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 62,7 mlrd. so'm  55,4 %	Non va non mahsulotlari 18,5 mlrd. so'm  16,4 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 5,1 mlrd. so'm  4,5 %
Tovuq go'shti 7,7 mlrd. so'm  6,8 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 3,2 mlrd. so'm  2,8 %	Tuxum 2,9 mlrd. so'm  2,6 %
Ziravorlar 5,8 mlrd. so'm  5,1 %	Sut va sut mahsulotlari 3,2 mlrd. so'm  2,8 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 1,2 mlrd. so'm  1,1 %
Tuzlamalar 2,4 mlrd. so'm  2,1 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 0,4 mlrd. so'm  0,4 %	Nooziq-ovqat tovarlar 0,0 mlrd. so'm 0,0 %

2024- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 121,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 876,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 342,2 mlrd. so'mni, otlar – 53,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 7,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>53,5 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>20,6 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>6,8 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>19,3 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>5,0 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>13,9 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1465 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1464 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	44,2	108,0
Qarshi sh.	13,6	99,7
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	3,0	109,3
G'uzor	2,1	105,4
Dehqonobod	1,1	106,6
Qamashi	0,8	108,7
Qarshi	1,6	108,8
Koson	1,5	109,4
Kitob	4,3	109,3
Mirishkor	0,6	109,1
Muborak	5,5	136,7
Nishon	3,8	106,4
Kasbi	1,2	107,9
Ko'kdala	0,7	110,3
Chiroqchi	1,7	105,4
Shahrisabz	0,9	107,2
Yakkabog'	1,8	107,7

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 44,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 95,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	272,4	100,0
Qarshi sh.	254,6	93,5
Shahrisabz sh.	0,5	0,2
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,4	0,1
Dehqonobod	0,4	0,2
Qamashi	0,2	0,1
Qarshi	11,0	4,0
Koson	0,5	0,2
Kitob	0,6	0,2
Mirishkor	1,1	0,4
Muborak	0,6	0,2
Nishon	0,6	0,2
Kasbi	0,1	-
Ko'kdala	0,4	0,1
Chiroqchi	1,4	0,5
Shahrisabz	-	-
Yakkabog'	0,2	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (254,6 mlrd. so'm), Qarshi (11,0 mlrd. so'm) va Chiroqchi (1,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 272,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 110,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 2,3 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 162,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 4,4 m.) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 390,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

11,4 %

26,1 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

88,6 %

364,6 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 364,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,3 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2250 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2235 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar G‘uzor (135,0 %) va Shahrissabz tumanlari (129,7 %), Shahrissabz shahri (124,3 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	390,8	103,9
Qarshi sh.	187,8	99,0
Shahrissabz sh.	38,5	124,3
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	13,9	135,0
Dehqonobod	1,8	111,7
Qamashi	8,9	121,6
Qarshi	27,9	106,7
Koson	28,2	107,2
Kitob	21,3	112,3
Mirishkor	11,4	111,1
Muborak	6,0	110,1
Nishon	7,5	113,0
Kasbi	3,5	26,7
Ko‘kdala	1,4	109,7
Chiroqchi	13,7	109,5
Shahrissabz	10,7	129,7
Yakkabog‘	8,3	113,4